

Shokarimov Suqrot Shomansur o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti magistri

Muratova Dildora Abdumannapovna

Toshkent davlat transport universiteti dotsent v.b.

Nazarova Nilufar Jo'rayevna

Toshkent davlat transport universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada bilim olish va undan foydalanish, axborot texnologiyalaridan vosita sifatida foydalanish, ijtimoiy va kasbiy muloqotga kirishish, funksional savodli bo'lib, maqsadni tanlash va unga erishish yo'llarini o'zlashtirish kabilar keltirilgan.*

Kalit so'zları: *ta'lism, tarbiya, pedagogik faoliyat, ilm-fan yutuqlari, taraqqiyot, rivojlanish dinamikasi, pedagogik jarayon.*

Ta'lim-tarbiya masalasi barcha tarixiy davrda dolzarb sanalib, ilmiy va zamonaviy ahamiyat kasb etib kelgan. Tarixiy ahamiyati shundaki, dunyonining turli hududida yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar, olimu fuzalolar tomonidan inson kamolotini ta'minlashda ta'lim-tarbiya haqida turlicha munosabat bildirganliklarini ko'rsatib o'tish mumkin. Masalani zamonaviy-ilmiy ahamiyatini esa ijtimoiy munosabatlarda, jumladan "akmetexnologiya", "innovatsiyaviy taraqqiyot", "intellektlashuv", "intellektual ta'minot", "intellektual resurs", "innovatsiyaviy faoliyat", "xizmat ko'rsatishda mijozsentrlashtirilgan yondashuv", "tahliliy faoliyat", "texnologiyalashuv" kabi tushunchalarni shiddat bilan qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Buni bilimlar tizimi takomillashib, inson va uning hayot tarziga oid bo'lgan stereotiplarni o'zgarib borilayotganligi bilan izohlash mumkin.

Dunyoda ro'y berayotgan tendensiyalar shundan dalolat beradiki aynan fan-texnologiya sohalariga va kadrlar tayyorlash masalalariga e'tibor berayotgan mamlakatlar intensiv taraqqiyot yo'liga o'tib olmoqda. Bu o'rinda ta'kidlash joizki O'zbekistonda ma'naviy tiklanish va rivojlanish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalişlaridan biriga aylanganligi va oliy ta'lim tizimini sifatli yangilash barqaror rivojlanish jamiyatini barpo etish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli XXI asrda jahon hamjamiyati ta'lism roli va ahamiyatini qayta ko'rib chiqayotganligi ham bejiz emas. Dastlab ta'limgni isloh qilishga ilmiy texnik inqilobning «ijtimoiy natijalari»dan biri sifatida qarala boshlandi. Keyinchalik esa ta'lim iqtisodiy va ilmiy texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili va muhim sharti jamiyat ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirishning, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlashning mexanizmi sifatida tan olindi [3,4,6]. Respublikamizda ham ta'limgni modernizatsiya qilish maqsadida «Ta'lism to'g'risida»gi Yangi tahrirdagi Qonun (2019), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lism sohasida

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni (2019), “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” Konsepsiysi qabul qilinishi va ular asosida ta’lim tizimida tub islohotlar olib borilishi, oliy ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o‘z navbatida fuqarolik jamiyatini shakllantirishning yuksak talablari va e’tirof etilgan namunalarga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishda ilg‘or zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ta’lim va tarbiya jarayonlarini tadqiq etishni taqoza etmoqda.

Oliy ta’lim tizimi ham xalqaro ta’lim standartlariga tobora muvofiqlashib borayotganligi, ushbu sohadagi tub ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni va texnik va transport yo‘nalishlarida yuqori malakali ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlashni taqozo etmoqda. Chunki O‘zbekiston Respublikasi transport sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini ilg‘or xorijiy tajriba va halqaro standartlar asosida tubdan takomillashtirishi dolzarblashmoqda [5,7,8,9,10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “...biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘yan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik” [1] deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim – tarbiya sohasiga bo‘lgan munosabat pozitiv tomonga o‘zgarib, bu borada ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi [11,12,13,14,15,16,17,18,19,20].

Yoshlarda qaysi sifat va fazilatlarni shakllantirish muhimligini, jamiyatda turli shakl va ko‘rinishlarda ifodalangan ijtimoiy-madaniy muammo belgilab beradi. Aniqrog‘i, yuzaga kelgan muammoni sababi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillarning mazmunini aniqlanishi natijasida, bu holat boshqa takrorllanmasligini ta’minalash uchun jamiyat ijtimoiy buyurtmachi sifatida ta’lim-tarbiya institutiga bir qator vazifalarni bajarishini belgilab beradi.

Ta’lim-tarbiya taraqqiyotni ta’minlovchi muhim omil hisoblanishi bilan birga, jamiyat hayotini ta’minlash va islohotlarni amalga oshirishda darajalarda (sohaviyligi, tarixiyligi kabi belgilari bo‘yicha) ham ishtirok etadi[2.47-51]. Bu o‘z navbatida ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat takomillashuv xususiyati ekanligini ko‘rsatadi va unda ijtimoiy institut sifatida ta’lim dominantlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya taraqqiyot poydevori hisoblanib, ishlab chiqarish+fan+texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etilishi natijasida takomillashtirishni taqozo etadi. Takomillashtirish mexanizmini esa ilmiy tadqiqotlarning natijasi belgilab beradi. Ta’limga buyurtma beradigan korxona, turli muassasalar, umuman jamiyat ta’lim institutidan nimalarni kutishini, qanday soha

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

mutaxassisini tayyorlab berishni aniqlash uchun aniq va texnik fan sohalarining yutuqlaridan foydalanishni talab etadi. Ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar mavzusini belgilashda ularning uzviyiligiga, ya’ni har bir fan sohasida bajarilishi mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot, ikkinchi fan sohasida bajariladigan tadqiqotni sohaviy to‘ldirib, yaxlit majmuani vujudga keltirishi uchun xizmat qilishiga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

REGERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi- <http://uga.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. Манахова И.В. Риски информатизации образования // Ж. Информационнаука и безопасность регионов. 2012, № 2 (11). – С. 47-51.
3. Abdusalamovna, A. S., & Juraevna, N. N. (2022). A Strong Family as a Determining Development of Society. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(6), 31-36.
4. Muratova, D. A. (2020). Socio-cultural directions of human transformation in the scientific development of uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 974-982.
5. Рахмонов, Д. А., & Назарова, Н. Ж. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ПЕДАГОГИК ХОДИМЛАРНИНГ ХУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ БЕЛГИЛАШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 377-384.
6. Sabirovna, A. N., & Juraevna, N. N. (2022). Important Aspects of the System of Social Work for Young People in Uzbekistan. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(6), 37-41.
7. Feruza Oy Kenja Qizi Abdinazarova, & Aqida Abdujabborovna Dadasheva (2022). FUQAROLIK HUQUQI: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI KONSTITUTSIYASI VA XORIJIIY DAVLATLAR KONSTITUTSIYALARIDA. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 305-311.
8. Jo‘rayevna, N. N. (2022). KADRLAR KASBIY SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIKANING O ‘RNI. *PEDAGOG*, 1(4), 109-111.
9. Muratova, D. A., & Jumaniyazova, N. S. (2018). BERUNIY AND EUROPE. *Teoriya i praktika современной науки*, (5), 24-26.
10. Nazarova, N. (2020). YOSHLARDA RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. O‘ZMU Xabarlari.

11. Самаров, Р. С., & Садриддинов, С. Р. (2016). Педагогик фаолиуат тизими такомиллашувини та’минлашда тизимли таҳлил: функсионал ёндашув. *Современное образование (Узбекистан)*, (2), 23-29.
12. Navruzbek Shuhrat O'G'Li Jurakulov, Umar Muxiddin O'G'Li Qurbonov, & Aqida Abdujabbarovna Dadasheva (2022). YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 312-315.
13. Темирова, С. В., & Назарова, Н. Ж. (2022). ЁШЛАРНИНГ НУҚУQИЙ МАДАНИУАТИНИ YUKCALTIРИШДА КОНСТИТУSIYАНИНГ АНАМИYАТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 353-356.
14. Рахмонов, Д. А. (2017). THE SOCIAL-CULTURAL PECULIARITIES OF SOCIAL WORK (IN THE MODEL OF SERVICING OLDER PEOPLE). *Theoretical & Applied Science*, (11), 285-288.
15. Temirova, S. V., & Nazarova, N. J. (2022). YOSHLARNING RAQOBATBARDOSH KADR BO'LIB SHAKLLANISHIDA KONSTITUTSIYANING O 'RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 349-352.
16. Чулпонова, Х. Т. (2022). СУЩНОСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 666-671.
17. Samarov, R. S., & Rakhmonov, D. A. (2016). Social work activity in providing the life of the society (functional-structural analysis). *Theoretical & Applied Science*, (7), 14-16.
18. Temirova, S. V., & Nazarova, N. J. R. (2022). SIYOSIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 357-360.
19. Muratova, D. A. (2018). PSYCHIC GENOCIDE OF RELIGIOUS VIEV IN ZIGMUND FREYD RESEARCHES. *Теория и практика современной науки*, (3), 37-39.
20. Saminjon o‘g‘li, M. S., & Jo‘rayevna, N. N. (2022). PEDAGOGIK FAOLIYATDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *PEDAGOG*, 1(4), 105-108.
21. Муратова, Д. А., & Иброҳимов, Ў. О. Ў. (2022). ДУНЁ ХАМЖАМИЯТИДА ТЕХНОЛОГИЯ ИЖТИМОИЙ ЎЗГАРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 24-29.